

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI

G`afurova Shafolat Azamatovna

O‘zbekiston davlat jaxon tillari universiteti nemis tili amaliy fanlar kafedrasini o‘qituvchisi.

Annotatsiya: maqolada o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali darsga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish yaxlitligini ta’minlash hamda o‘qituvchi kasbiy kompetentligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyat mazmunini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, texnologiya, kompetentlik, faoliyat, dars, jarayon, samaradorlik, natija.

ВНЕДРЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ.

Гафурова Шафолат Азаматовна

Преподаватель кафедры прикладного немецкого языка Узбекского государственного университета мировых языков.

Аннотация: в статье описывается содержание деятельности, направленной на подготовку к уроку и эффективность его проведения, а также повышение профессиональной компетентности учителя путем применения педагогических технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: обучение, технология, компетентность, деятельность, урок, процесс, эффективность, результат.

INTRODUCTION OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IS AN IMPORTANT FACTOR OF INCREASING PROFESSIONAL COMPETENCE.

Gafurova Shafolat Azamatovna

Lecturer at the Department of Applied German at the Uzbek State University of World Languages.

Abstract: the article describes the content of activities aimed at preparing for the lesson and the effectiveness of its conduct, as well as increasing the professional competence of the teacher through the use of pedagogical technologies in the educational process.

Key words: training, technology, competence, activity, lesson, process, efficiency, result.

Hozirgi globallashuv va tarixiy davrda, Respublikamizda ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim vazifalarni bajarish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning hamma jabhalari mustaqillik mafkurasi asosida tez rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy va insoniy qadriyatlar yangicha milliy mazmun kasb etmoqda.

Respublikamiz rivojlanishini jadallashtirish inson omili, ma'naviy-madaniy qadriyatlar hamda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularga kasb-hunar o'rgatishni jahon standartlari asosida tashkil etishning ilmiy-nazariy asosini yurtboshimiz o'z asarlarida ochib berdi. Respublikamizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, uning jahon ham jamiyatiga tezkor kirishi bilan chambarchas bog'liq holda sodir bo'lmoqda. Bu masalani yechishda oliy va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlarining xalqaro ta'lim tizimi va xizmat bozoriga tezroq kirishiga ham bog'liqdir. Chunki bu ta'lim muassasalari jahon andozalariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasini hal qilishda asosiy rol o'ynaydilar. Bu esa oliy va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini taqozo qiladi. Buni ta'minlovchi asosiy omil esa o'qituvchi va pedagog kadrlarni tayyorlash, ularni malakasini oshirish va qayta tayyorlash sifatiga bog'liqdir.

Hozirgi kunda pedagogik adabiyotlar, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya», «Zamonaviy ta'lim texnologiyasi» iboralari keng qo'llanilmoqda. Ammo «Pedagogik texnologiya» tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, ensiklopediyalarda to'la izohlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun ushbu iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bu yerda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiq etish zarurati tug'ildi?, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli kadrlarni va yuqori malakali olimlarni yetishtirib kelgan pedagogika uslublari mavjudki, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarini o'zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi?- degan mulohazalar ham yo'q emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchiligining aksariyati, aynan mana shu yo'ldan bormoqda. Bu yo'l vaqtincha izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qilolmaydi. Chunki:

- **birinchidan,**- ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortga qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

- **ikkinchidan,**- an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

- **uchinchidan**, -fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'p ayib borayotganligi va ularni yoshlarga yetkazish uchun vaqtning chegaralanganligi;

- **to'rtinchidan**, -kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali bo'lgan, aniq natijaga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

- **beshinchidan**, -o'quvchi-yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidir.

Ta'lim texnologiyasi yuqorida sanab o'tilgan beshta sababiy shartlarni barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbirdir. Bu zaruriyat, shu vaqtgacha tahsil oluvchilar yopiq tafakkur paradigma (namuna, misol)lari asosida o'qitilganligi, ularda o'zgacha nuqtai nazarni tan olmaslik, faqat o'z fikrini to'g'ri deb bilish shakllanganligidandir. Bu hol har qanday taraqqiyotga g'ov bo'lib, shu paradigmadagi yurgan kishilarni inqiroz sari yetaklaydi.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundankunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy sohada, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat ta'lim standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ta'lim jarayonini, unga mukammallik, aniqlik, yo'lga solinganlik, tartiblilik, ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali samaradorligini oshirish va muqobillashtirish yo'llarini izlash maqsadida pedagogika sohasida doimo tadqiqot olib borilgan.

Zamonaviy pedagogikada ham, ta'limni shunday modellari, unga nisbatan shunday yondashuvlar ishlanmoqdaki, ular ta'limga ishlab chiqarish – texnologik jarayon, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan xarakterni berishi mkoniyatini yaratadi.

Ko'pgina mamlakatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Masalan Janubiy Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha tajriba–sinov tarzida o'qiyotgan 50 ming boladan 75 foizida an'anaviy o'qitishda faqat eng yaxshi o'quvchilar erishadigan natijalar qo'lga kiritilgan.

Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda, ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi.

Bunday yondashishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan-uni, aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib tashlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Ta'lim texnologiyasining predmeti – ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv

materialini tanlash va tizimlashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan.

Bizda ta'lim nazariyasi va amaliyotida, o'quv jarayoniga texnologik xarakterni kiritish XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Ular an'anaviy o'qitish uchun texnik vositalar majmuasini yaratishda o'z ifodasini topgan.

Hozirgi vaqtda, pedagogik texnologiyaga oddiygina «o'qitishning texnik vositalaridan yoki kompyuterlaridan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar sifatida qaralmaydi: bu o'qitish samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish va qo'llash yo'li bilan hamda qo'llanilayotgan usullarni baholash vositasida ta'lim jarayonining tamoyillarini aniqlash, optimallashtirish usullarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotlardir»¹.

Pedagog olim V.P. Bepalkoning fikri bo'yicha, barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'lga o'tkazish–o'quv amaliyotini, pedagogik jarayonni qurish va amalga oshirishda ixtiyoriylikdan, uning har bir elementini va bosqichini tartibli asoslashga, ob'ektiv tashxis qilinadigan yakuniy natijaga intilishiga keskin ravishda burilishini ifodalaydi.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelinayotgan ta'lim texnologiyalarini o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'alaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda milliy ta'lim texnologiyasini yaratish lozim.

O'qituvchi pedagogik kompetenentligini oshirishning muhim omillaridan yana biri uning darsga puxta tayyorgarlik ko'rishidir. Har bir o'qituvchi o'quv mashg'ulotiga tayyorlanar ekan, eng avvalo uning uch didaktik maqsadining (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) imkoniyatlarini aniqlashi zarur bo'ladi. Darsga tayyorgarlik ko'rishda mazkur dars muammolarini umumiy ma'rifiy-ma'naviy, mafkuraviy ishlar, o'quv yurtidagi tarbiyaviy jarayon bilan aloqadorlikda qarash lozim.

Darsga tayyorgarlikning eng muhim qismi uni rejalashtirishdir. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishining muhim bosqichlaridan biri darslarni tematik rejalashtirish hisoblanadi. Bunda dastur asosida darslikdan foydalanib, har bir dars mavzusi ma'lum izchillikda aniqlanadi. So'ng darsning maqsadi, vazifalari, uning mazmuni va ish metodlari aniqlanadi.

Darsga tayyorgarlik ko'rishning eng muhim qismi uning jonli ssenariysi – mazmunnomasi (konspekti)ni tuzishdir. Darsning mazmunnomasi uni amalga oshirishning to'la tafsilotining bayonidir. Unda darsni o'tkazish mazmuni, shakli, metodlari hamda asosiy qismlari aloxida ajratib ko'rsatiladi. Dars mazmunnomasi

¹Международный ежегодник по технологии образования, 1978-79, Лондон, Нью-Йорк, 1978. С. 258.(Инглиз тилида).

bilan birgalikda hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy majmua ham keng foydalanilmoqda.

Shunday qilib, o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llash darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish yaxlitligini ta'minlaydi. Shuningdek, u o'qituvchi kasbiy kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

Адабиётлар

1. Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Д. DIDAKTIK TALIM VOSITALARI TALIM JARAYONI SAMARADORLIGINI TAMINLASH OMILI SIFATIDA: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.55. 50.016
Abdullayev Qobiljon Fayzullayevich, Buxoro dalat universiteti pedagogika kafedراسи dotsenti Bobomurodova Nargiza Jorayevna Buxoro dalat universiteti ekologiya va geografiya kafedراسи katta oqituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 81-86.
2. Ў.Толипов, М.Усмонбоева. Педагогик технологияларни татбиқий асослари. Т. Фан, 2006 й, 42-43 бетлар.
3. Р.Ишмухамедов. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадолигини ошириш йўллари. Т. 2004.
4. Тожиев М. Зиёмухаммадов Б. Миллий педагогик технологияни таълимтарбия жараёнига татбиқи ва унинг ёшлар интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдаги ўрни. Т. “МУМТОЗ СЎЗ”, 2010 йил.